ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

# PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

# FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

# ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 1,3

Termiz – 2026

**Muassis:**
**Termiz davlat universiteti**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**

**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

**Tahririyat manzili:**
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

**BOSH MUHARRIR:**
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**TAHRIR HAY'ATI:**

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

**Учредитель:**
**Термезский государственный университет**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**
**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

**Адрес редакции:**
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

**ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:**
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

**Institutor:**
**Termez State University**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**

**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

**EDITOR IN-CHIEF:**
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

**EDITORIAL BOARD:**

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

# МУНДАРИЖА

## TILSHUNOSLIK


**MAMMADOVA SHAKAR,**
**XAMIDOV MANSUR**
Ozarbayjon va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning qiyosiy-tipologik tahlili ..... 7

**YAKUBOVA NILUFAR EGAMBERGANOVNA**
O‘zak va qolip (vazn) nazariyasi arabiy o‘zlashmalarni
tahlil qilishning asosiy mezoni sifatida ..... 12

**SAMANDAROV RUSTAM DO‘SYOROVICH**
Tilshunoslik fani taraqqiyotida applikativ modelning murakkab
sintaktik qurilmalar shakllanishidagi o‘rni ..... 17

**ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА**
Арабская лингвистическая традиция VII–XVII вв.: формирование
интеллектуального стиля и инструментов сохранения языковой нормы ..... 21

**ALIMOVA ZARIFAXON VAXOBOVNA**
**MAMAROZIQOVA SUG‘DIYONA SHUXRATJON QIZI**
Jomiyning «Yusuf va Zulayho» dostonida forsiy o‘rin-joy yasovchi affikslarining qo‘llanilishi ..... 25

**TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA,**
**YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA**
Mahmud Koshg‘ariyning «Devony lug‘oti-t-turk» asarida keltirilgan
maqollardagi so‘zlarning semantik-stilistik xususiyatlari ..... 29

**SADULLAYEVA MATLYUBA AXROROVNA**
Ahmad Yassaviy ijodining ramziy tili va undagi raqamli tasavvuf ..... 33

**SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O‘G‘LI**
Arab tilida enantiosemiya hodisasi: semantik tabiati va ilmiy talqinlar tahlili ..... 36

**PANJIEVA NASIBA NARMAXMATOVNA**
**SAIBNAZAROVA NAZOKAT**
English proverbs with number components ..... 39

**ЛАТИПОВ АЗИЗ АКБАРАЛИЕВИЧ**
Сопоставительная характеристика категории
фазовости в английском и узбекском языкознании ..... 42

**AMONOV MUXTORJON UMAROVICH**
«Boburnoma» asaridagi arabcha o‘zlashmalarda antonimlik ..... 45

**ОРИФЗОДА МАДИНА КАМИЛОВНА,**
**ОРИФЗОДА БОНУ КАМИЛОВНА**
Системное изучение словообразовательной омонимии
в ретроспективном и перспективном аспектах ..... 48

**SABIROV ASROR ABDULLAYEVICH**
Nemis–o‘zbek siyosiy terminlarining semantik va stilistik xususiyatlari ..... 52

**IBRAXIMOVA IRODA BOBIR QIZI**
O‘zbekistonda til siyosati va ingliz tilining rivoji ..... 56

**TURSUNOVA MARXABO RAXMONOVNA**
Jojo Moyesning «To seni topgunimcha» romanida kognitiv dissonans fenomenining
psixologik va lingvistik talqini hamda uning tarjimashunoslikdagi ifodasi ..... 60

**ARZIMURODOVA E’ZOZA BERDIMUROD QIZI**
Zamonaviy mobil aloqa terminlarida transliteratsiya strategiyalari: ingliz va o‘zbek tillari qiyosida ..... 64

**BOZOROVA SEVARA KAMOL QIZI**
Savdo konsepti doirasida sinonimiya (o‘zbek va ingliz tillari misolida) ..... 68

**КАРИМОВА ГУЗАЛ ИХТИЯРОВНА**
Лингвокультурологический аспект концепта и его изучение в разных языках ..... 71

**MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA**
O‘tkir Rahmat she’riyatida sinonim so‘zlarning qo‘llanishi haqida ayrim mulohazalar ..... 76

# МУНДАРИЖА

**MUSTAFOEVA MAKSAD ASKAROVNA**
The structural and linguistic analysis of anthroponyms in «Beowuf» and «Alpomish» folk epics ..... 79

**NOSIROVA DILNOZA RIZOKULOVNA**
Semantic and pragmatic features of john green's novels in contemporary young adult literature ..... 82

**RAXIMOVA ZARINA UKTAMOVNA**
O'smirlar psixologiyasining lingvopoetik ifodasi va tarjimada ichki monolog hamda emotsional tasvir ..... 87

**RAXMATOVA GULNOZA ISOXONOVNA**
O'zbek tilidagi so'roq olmoshlari va so'roq yuklamalarining ingliz tilidagisi bilan qiyosi ..... 90

**BERDIYEVA SITORA UTKEROVNA**
G'afur G'ulomning «Shum bola» asarida yumorning badiiy funksiyalarining lingvistik jihatlari ..... 93

**SHAMSITDINOVA MOXINABONU AKBAR QIZI**
Yapon tilida omonimlardan foydalanishda nutqiy strategiyalar ..... 98

## ADABIYOTSHUNOSLIK

**ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ**
Телба образининг бадиий талқини
(Эркин Аъзамнинг «Сув ёқалаб» ва «Танҳо қайиқ» киноқиссалари мисолида) ..... 100

**ASQAROVA ZULAYXO YANGIBOYEVNA**
Muhammad Rizo Ogahiyning «Riyozu-d-davla» asaridagi ta'rixlarning badiiy-estetik qimmati ..... 104

**MAMADJONOVA SEVARA MAXAMADJON QIZI**
Adabiyotshunoslikda dualizm tushunchasining nazariy va
metodologik asoslari (Agata Kristi poetikasi misolida) ..... 109

**RAHIMOVA SARVINOZ TOLIBOVNA**
Usmon Azimning «Devorlari yiqilgan bog'» hamda «Yana sevgi haqida she'rlar»
asarlaridagi simulyakra va boshqa postmodern xususiyatlar ifodasi ..... 112

**СААКЯН РОЗА ЮРЬЕВНА**
Поэтика полемического жанра в памфлетной публицистике
Даниэля Дефо и Жжонатана Свифта ..... 115

**SHAMSIYEVA SHOXISTAXON QUDRATULLAYEVNA**
Gender rollarni aks ettiruvchi stereotiplar ..... 119

**НАСРИДИНОВА СИТОРА УТКИРОВНА**
Мотив отсутствия и присутствия как средство создания
напряжения в рассказе Джека Ритчи «Отсутствие эмили» ..... 125

**BAFOYEVA ROXILA VALIJON QIZI**
Amerika hamda o'zbek postmodern adabiyoti xususiyatlari ..... 128

**KHAKIMOVA NARGIZA KHAYRILLOYEVNA**
Mythological origins of the epics "Arthuriana" and "Alpamysh" ..... 131

## TA'LIM

**TILOVOVA GO'ZAL RUSTAMOVNA**
Ta'lim jarayonida o'quv izohli lug'atlardan foydalanishning nazariy va amaliy ahamiyati ..... 135

**YULDASHEVA DILAFRUZ**
The role of teacher instruction in efl classrooms: a discourse-oriented analysis
of their importance in teaching young learners ..... 138

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

# TILSHUNOSLIK FANI TARAQQIYOTIDA APPLIKATIV MODELNING MURAKKAB SINTAKTIK QURILMALAR SHAKLLANISHIDAGI O'RNI

**Samandarov Rustam Do'syorovich,**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davrida nutq lingvistikasi ilmiy asoslangan ekan, mazkur masala tavsifiga, xususan, gapning lingvistik maqomi masalasiga o'zgacha yondashish talab qilinishi shubhasizdir. Shular jumlasiga *qo'shma gap* tushunchasi ham kiradi. Hozirgi vaqtda olimlar orasida qo'shma gap atamasini turli yo'llar bilan tushunish ba'zi hollarda uning sintaktik tabiatini boshqacha tushunishga olib keldi, ayrimlar uning bir xususiyatini, predikativ birliklarning birligini hisobga olishsa, boshqalarida ularning semantik va tarkibiy birligiga e'tibor berildi.

Ma'lumki, murakkab sintaktik qurilmalar (MSQ) har qanday til sintaksisida ham eng katta salmoqqa ega. Agar sodda gaplar strukturasi juda katta hajmga ega bo'la olganda ham undagi barcha ishtirokchi elementlar bitta predikativ markaz atrofida munosabatga kirishadi. MSQlarda esa yolg'iz predikativ markaz haqida so'z yurita olmaymiz. Masalan, teng munosabatli MSQlarning aksariyat qismi avtosemantik[1] gaplar hisoblanganligi uchun ularning tarkibiga birlashayotgan har bir gap o'zining predikativ yadrosiga ega bo'lsa, ergash gapli qo'shma gaplar komponentlari sinsemantik[2] strukturaga ega bo'lib, ularning tarkibida ham biri ikkinchisi bilan bog'liq bo'lgan ikki yoki undan ortiq predikativ yadrolarni ko'ramiz. Xususan, tobe munosabatli MSQlarda sintaksisning eng murakkab qonun-qoidalariga duch kelamiz. Chunki tobe munosabatli MSQlar masalasi har qanday til sistemasida ham sodda gap muammosidan ko'ra murakkabroq hisoblanadi. Bu masala bizningcha, eng avval, verbal kommunikatsiya va uning ifodalanish usullari bilan bog'liq bo'lishi shart.

Fransuz tilshunosi Jorj Galishe tobe munosabatli MSQlar haqida gapirganda ularning tarkibiga birlashayotgan sodda gaplarni elementar molekulalar deb ko'rsatadi va ana shu molekulalarning gap tarkibida saqlanib turishini fe'l sababidan ekanligini ta'kidlaydi. Lekin, bundan tashqari, tobe munosabatli MSQlarning shu xildagi elementlari molekulalardan tashkil qilinishida boshqa bir necha xil faktorlar ham muhim rol o'ynashlari mumkin. Masalan, o'zining mustaqil predikativ markaziga ega bo'lgan, shu bilan birga grammatik to'g'riligi to'liq ifodalangan, verbal kommunikatsiya prinsipi buzilmagan qandaydir gapning qaysidir bir elementiga aniqlik kiritish yoki izoh berishga to'g'ri kelib qolsa, shubhasiz, tobe munosabatli MSQ formasiga murojaat qilamiz. Biroq bu o'rinda tobe munosabatli MSQlarning tashkil qilinishi muammosi ana shu aniqlik talab qilayotgan so'z bilan bog'liq bo'ladi. Demak, ikkinchi verbal kommunikatsiya ham shu so'zga kelib taqaladi.

Bundan tashqari, tobe munosabatli MSQlarning qo'llanilishi masalasi paralingvistik faktorga hamda so'zlovchining xohishi, irodasiga ham bog'liq bo'ladi. Chunki insonning xohishi, irodasi tilning barcha materiallarining faollashishida ham muhim rol o'ynaydi.

Shuning uchun ham V.V.Bogdanov Ferdinand de Sossyur har qanday nom (eksponent) va narsa (denotat) to'g'ridan-to'g'ri bir-biri bilan borliq bo'la olmaydi, ular insonning ongi, tafakkuri orqali bog'lana oladi, deganda haqli edi, deb ta'kidlaydi.

Demak, tobe munosabati MSQ qo'llanilishi masalasi ham situatsiya va so'zlovchiga bog'liq bo'ladi. Fikrimizning isboti uchun quyidagi holatni ko'rib chiqaylik. Agar bizga suhbatdoshimiz *Kitobni keltiring* demoqchi bo'lsa, shubhasiz quyidagi ikki so'zdan foydalanadi: *kitob va keltirmoq*. Biroq kitoblar orasidan qaysi kitobni olib borishni tushunib yetmasak, *U stol ustida turibdi* jumlasini qo'shishi mumkin. Shunday qilib*, Kitobni keltiring. U stol ustida turibdi* shaklida ikkita sodda gap hosil bo'ladi. Bunday holat, albatta, ma'lum situatsiya doirasida so'zlovchi tomonidan qo'llanilishi mumkin. Bundan tashqari, ayni paytda *Stol ustida turgan kitobni keltiring* gapidan ham foydalanishimiz mumkin. Bu o'rinda sifatdosh formasi orqali ikkita mustaqil predikativ markazga

[1] Гулыгина Е.В. Теория сложноподчинённого предложения в современном немецком языке. – М.: Высшая школа, 1971. – С.18.

[2] Гулыгина Е.В. Теория сложноподчинённого предложения в современном немецком языке. – М.: Высшая школа, 1971. – С.20-26.

ega bo‘lgan sodda gaplar bir gap tarkibiga birlashayotganini ko‘ramiz.

Bordiyu situatsiya talabiga ko‘ra so‘zlovchi shaxs aynan stol ustida turgan kitobni keltirmoq zarurligini bo‘rttirib ko‘rsatmoqchi bo‘lsa, u holda quyidagi tobe komponentli MSQ formasini ishlatishga to‘g‘ri keladi:

*Qaysi kitob stol ustida turgan bo‘lsa, o‘sha kitobni keltiring.*

Ko‘rinib turibdiki, so‘zlovchi shaxs oldida yoxud bir mazmunning bir necha xil gap formalari orqali ifodalash imkoniyati hosil bo‘ladi:

I. *Kitobni keltiring. U stol ustida turibdi* ikki sodda gap formasi; *Stol ustida turgan kitobni keltiring* sodda gap formasi; *Qaysi kitob stol ustida turgan bo‘lsa, o‘sha kitobni keltiring* – tobe komponentli MSQ formasi. Bu xildagi gap formalarini transformalar, invariantlar yoki sintaktik sinonimlar ham deb atash mumkin. Chunki ularda aynan bir mazmunning bir necha xil formalarda ifoda qilinayotganligini ko‘ramiz. Biroq keyingi gap formasida, ya’ni ergash gapli qo‘shma gapning nisbiy olmoshli formasida qandaydir kitob haqida emas, balki qaysi kitob stol ustida turgan bo‘lsa, o‘sha kitobni keltirish zarurligi haqida gap bormoqda.

Shunday qilib situatsiyaning talabiga ko‘ra biz sodda gap formasini yoki tobe komponentli MSQ formasini tanlab olish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Biz har doim ma’lum situatsiya qurshovida bo‘lganimiz uchun qaysi gap formasini ishlatish zarurligi haqida o‘ylab o‘tirmasdan mexanik tarzda qaysi gap formasini tanlab ishlatganimizni sezmay qolamiz.

Shuni ham aytib o‘tish lozimki, MSQ lar mazmuni jihatidan ham, struktrasi jihatidan ham sintaksisning eng oliy nuqtasida turadi. Keyingi yillarda chop etilayotgan lingvistik adabiyotlarda MSQlarni polipredikativ gaplar deb kiritish maqsadga muvofiq ekanligi uqtirilmoqda[1]. Darhaqiqat, MSQlarda sodda gaplardan (mono predikativ gaplardan) farqli ravishda ikki yoki undan ortiq predikativ yadrolarning mavjudligini ko‘ramiz.

Bizning fikrimizcha, tobe komponentli MSQlarda asosiy mazmun hokim gap orqali ifodalanadi, tobe gap esa o‘sha mazmunni aniqlab, to‘ldirib keladi, Shunga ko‘ra, semantik va tayanch struktura masalasi ham bosh gap bilan bog‘langan bo‘ladi. Fikrimizning isboti uchun quyidagi misollarning tahliliga to‘xtab o‘tamiz:

*1. Chambarchas soyabonlar o‘rnatilganini ko‘rib, quvonaman (U.Usmonov, Nomus).*

*2. Xavotir bo‘lmang deb, atayin xabar bergani kirdik (R.Fayziy, Hazrati inson).*

*3. Qanchaki tajriba, qanchaki yangilik bo‘lsa, chol hammasini chaqqonlik bilan o‘rganib, hammadan yuqori hosil oldi (Sh. Rashidov. Bo‘rondan kuchli).*

Eng avval bu gaplardagi hokim gaplarni ko‘chirib yozamiz:

*1. (men) quvonaman.*

*2. … atayin xabar bergani kirdik.*

*3. hammadan yuqori hosil oldi.*

Ko‘rinib turibdiki, ularning har qaysisi ham mustaqil mazmundagi alohida gaplarga o‘xshaydi. Biroq, ular orqali ifodalanayotgan xabar situatsiyani qoniqtira olmasa, ularga qo‘shimcha mazmun beruvchi boshqa gaplarni ham biriktirishga to‘g‘ri keladi. Birinchi gapga *Chambarchas soyabonlar o‘rnatilganini ko‘rib,* …, ikkinchisiga *Xavotir bo‘lmang deb,* …, uchinchi gapga *Qanchaki tajriba, qanchaki yangilik bo‘lsa, chol hammasini chaqqonlik bilan o‘rganib,* … kabi gaplarni qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdamiz. Lekin, bu gaplar bosh gapning mazmunini to‘ldrish uchungina ishlatilganligi tufayli, biz ularni ergashgan qo‘shma gaplarning sintaktik strukturasiga tegishli gaplar, deb hisoblaymiz. Semantik struktura esa, faqatgina bosh gaplar strukturasi orqali ifodalanadi. Hatto ayrim MSQlarda bosh gap sintaktik strukturasi jihatidan ham, semantik strukturasi tomonidan ham mustaqil ko‘rinishga ega bo‘lmasa-da, ularning tayanch strukturasini ko‘proq darajada bosh gapda ko‘ramiz: *Tiq etgan tovush eshitsa, shahardan askar chaqiradi (H.G‘ulom. Mash’al).* Keltirilgan gapda tayanch struktura askar chaqiradi qismida ifodalanayapti. Gapning qolgan qismi esa tayanch strukturaga izoh berish maqsadida «-sa» elementi orqali bosh gashga bog‘lanmoqda. Berilgan misollarning barchasida ham tobe gaplarning hosil bo‘lishi situatsiya qurshovida bo‘lgan bosh gaplarning talabiga binoan ekanligidan dalolat bermoqda. Demak, tobe gaplar o‘zi o‘zi uchun emas, balki boshqa bir gapning (bosh gapning) talabiga ko‘ra, uning semantik va struktural butunligini to‘ldirish maqsadida hosil bo‘ladi, degan xulosaga kelishimiz maqsadga muvofiqdir.

Murakkab sintaktik qurilmalarni sintaktik derivatsiya nuqtayi nazaridan o‘rganadigan bo‘lsak, ularni ikki jihatdan ko‘rib chiqish, maqsadga muvofiq ko‘rinadi. Birinchidan, MSQ komponentlarini alohida-alohida tahlil qilish, ikkinchidan, MSQ ning o‘zini yaxlit struktura sifatida ko‘rib chiqish. Aytish lozimki, biz har ikki usulda ham applikativ modelning MSQ sintaktik derivatsiyasidagi o‘rnini ko‘rishimiz mumkin:

*1. Qosimbek Bobur Mirzoning ustozi Xo‘ja Abdullani uyidan qidirib topgach, ular ikkovlashib arkdagi beklar oldiga chiqishdi (P.Qodirov. Yulduzli tunlar).*

Keltirilgan MSQ ikki komponentdan iborat bo‘lib, polipredikativ xususiyatga egadir. Mazkur MSQni yaxlit struktura sifatida tahlil qiladigan bo‘lsak, uning har bir komponenti derivatsiya operandi sanaladi.

[1] Turniyozov B. Hozirgi o‘zbek tilida teng komponentli murakkab sintaktik qurilmalar derivatsiyasi. – Samarqand. 2008. – B. 78.

Ikki komponentni bog‘lovchi vosita esa *(-gach)* MSQ sintaktik derivatsiyasining operatori maqomida kelmoqda:

I.

1-operand – *Qosimbek Bobur Mirzoпing ustozi Xo‘ja Abdullaпi uyidaп qidirib topgach;*

2-operand – *ular ikkovlashib arkdagi beklar oldiga chiqishdi.*

operator – *gach (applikator)*

MSQ komponentlarining sintaktik derivatsiyasini alohida – alohida tahlil qiladigan bo‘lsak, u quyidagi bosqichlarda amalga oshishini ko‘rishimiz mumkin:

1. *Qidirib topgach* – tub struktura; V

2. *Qosimbek qidirib topgach* – tayanch struktura; N+V

3. *Qosimbek uyidan qidirib topgach* – hosila struktura; $N+X_1+V$ (operator –dan)

4. *Qosimbek Xo‘ja Abdullaпi uyidaп qidirib topgach* – hosila struktura; $N+X_2+V$ (operator –ni)

5. *Qosimbek Bobur Mirzoпing ustozi Xo‘ja Abdullaпi uyidaп qidirib topgach* – Hosila struktura. $N+X_3+V$ (operator -ning)

Ko‘rinadiki, MSQ birinchi komponentining sintaktik derivatsiyasi besh bosqichdan iborat bo‘lib, derivatsion jarayon uchinchi bosqichdan boshlanmoqda. Shuningdek, derivatsion jarayon boshlangandan tirkalayotgan applikatorlar derivatsion nuqtayi nazardan operator maqomida kelmoqda. Ammo, aytish joizki, yangi operator maydonga chiqqandan so‘ng, eskisi o‘z o‘rnini yangisiga bo‘shatib berar ekan, eski operatorning operatorlik maqomi qolmaydi. Ammo, appliktorlar soni gap tarkibida kamaymaydi. Endi MSQ ning ikkinchi komponenti sintaktik derivatsiyasi jarayoniga nazar tashlasak:

II.

*1. chiqishdi* – tub struktura. V

*2. ular chiqishdi* – tayanch struktura. N+V

*3. ular beklar oldiga chiqishdi* – hosila struktura. $N+X_1+V$ (operator oldiga)

*4. ular arkdagi beklar oldiga chiqishdi* – hosila struktura. $N+X_2+V$ (operator –dagi)


*5. ular ikkovlashib arkdagi beklar oldiga chiqishdi* – hosila struktura $N+X_3+V$ (orperator –ib).

MSQning ikkinchi komponenti besh bosqichda amalga oshmoqda. Gap tarkibiga yangi applikator tirkalgan sari, uning shakli kengayib borayotganini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Ko‘rinadiki, umumiy sintaktik strukturaning mazmun butunligi faqat tayanch strukturaga bog‘liq, unga yangidan qo‘shilayotgan unsurlar mazmuniy jihatdan ikkinchi darajali, deyish noo‘rindir[1].

MSQ sintaktik strukturasini umumiy oladigan bo‘lsak, MSQ tarkibiga tirkalayotgan har bir qism (yangi komponent) applikator sanalishi mumkin. Masalan:

*Bahor keldi. Bahor keldi va kunlar isidi Bahor keldi, kunlar isidi va gullar ochildi.*

Mazkur misolda *Bahor keldi* jumlasi bilan *kunlar isidi* jumlasi ohang orqali birikmoqda. Mazkur vaziyatda ma’lum real appliktor ko‘zga tashlanmasa-da, biz sintaktik bog‘lanishni inkor eta olmaymiz. Chunki derivatsion jihatdan bu ikki sodda gapni nol operator bog‘lab turibdi. Tirkalish jarayonini davom ettiradigan bo‘lsak, *Bahor keldi va kunlar isidi* MSQsiga nisbatan *va bog‘lovchisi* applikator sanaladi. Ko‘rinadiki, tahlil qilinayotgan birlik hajm jihatidan kattarib boravergan sari, operandlar hajmi ham yiriklashib boraveradi. Guvohi bo‘lganimizdek, MSQ shakli kengayishida endi qo‘shimchalar, yoki so‘zlar emas, balki mustaqil jumlalar operandlar vazifasini bajarmoqda. Buni sxemada quyidagicha ko‘rsatish mumkin:




1 Кацнельсон С.Д. Общее и типологическое языкознание. – Л., 1986. – С. 133.

Tobe munosabatli MSQlarda esa applikatorlar vazifasini ergashtiruvchi bog‘lovchilar, ko‘makchili qurilmalar, shuningdek, bog‘lovchi vazifasini bajaruvchi boshqa so‘zlar bajaradi:

*1. Agar hozir bu ishga qo‘l uradigan bo‘lsak, qovog‘arining uyasiga cho‘p tiqqan bo‘lamiz (K.Yashin. Hamza).*

*2. Shayx bir ishora qilsa, bular bizni burda-burda qilib tashlashadi (K.Yashin. Hamza).*

Keltirilgan misollarda MSQlarning tobe qismlari hokim gapda ifodalanayotgan ish harakatlarning real shartlariga ko‘ra amalga oshayotganini ko‘rsatmoqda. Boshqacha aytganda, ana shu shartlar mavjud bo‘lmasa, bosh gaplarda ro‘y berayotgan voqea hodisalarning voqelanishi uchun shart mavjud bo‘lmasligi izohlanmoqda. Bu singari MSQlarda A.G‘ulomov, M.Asqarovalarning to‘g‘ri ta’kidlashicha, tobe gapda qo‘yilayotgan shart, bosh gapda ro‘y beradigan natijani ko‘rsatadi. Agar bunday shart mavjud bo‘lmas ekan, bosh gapdagi voqea hodisa ham sodir bo‘lmaydi[1]. Ayni paytda esa ana shu shart ifodasini yuqoridagi gaplarda *agar* bog‘lovchisi bilan *–sa* shart mayli qo‘shimchasi bajarmoqda hamda MSQ ikki qismini bir-biriga bog‘lamoqda. Demak, mazkur bog‘lovchi vositalar applikator sanalib, derivatsion jihatdan operator maqomini olmoqda.

Bizningcha, bu atamani qayta ko‘rib chiqishga ehtiyoj tug‘ilishi tabiiydir. Buning turli sabablari bor. Birinchidan, qo‘shma gapda (uning har bir turida) matn belgisi mavjud va buni inkor etib bo‘lmaydi. Matn, albatta, o‘zining lingvistik maqomi bilan gapdan farq qiladi. Ikkinchidan, qo‘shma gapda nafaqat polipredikativlik belgisini, balki ustpredikativlik belgisini ham ko‘ramiz. Bundan tashqari qo‘shma gap atamasini qo‘llash til va nutq birliklarining pog‘onali munosabatiga putur yetkazadi. Bizga ma’lumki, har qanday kichik birlik o‘zidan katta birlik ichida faollashadi va pog‘onali munosabat yaratadi. Agar so‘zlar gap ichida faollashsa, sodda gaplar qo‘shma gap ichida faollashadi, degan fikr paydo bo‘ladi. Bu esa gap gapning ichida faollashadi, degan yanglish xulosaga olib keladi. Shu sababdan ham biz o‘z maqomiga ko‘ra gapdan kattaroq atamani qo‘llashimiz kerak bo‘ladi. Ana shularni hisobga olib, biz ham qo‘shma gap termini o‘rniga murakkab sintaktik qurilma atamasini qo‘llashni joiz topdik.

**Rezyume.** Mazkur maqolada tilshunoslik fani taraqqiyotida applikativ modelning murakkab sintaktik qurilmalar shakllanishidagi o‘rni xususida to‘xtalib o‘tilgan. Gap shaklining sintaktik murakkablashuvi kirish so‘z va birikmalar, undalmalar va kiritma qurilmalar orqali ro‘y berishi ham mumkin. Lekin, mazkur vositalarning sintaktik faolligi applikativ model doirasida ro‘y bermaydi. Ro‘y bergan taqdirda ham distant munosabat shakllanadi. Zotan, ular jumla tarkibida qatnashayotgan bevosita ishtirokchilar bilan to‘g‘ridan – to‘g‘ri sintagmatik munosabat tashkil eta olmaydi.

**Resume.** This article discusses the role of the applicative model in the development of linguistics in the formation of complex syntactic devices. Syntactic complexity of the form of speech can also occur through introductory words and conjunctions, interjections and interjections. Howeven the syntactic activity of these devices does not occur winthin the framework of the applicative model. Even if it does, a distant relationship is formed. After all, they cannot form a direct syntagmatic relationship with the direct participants participating in the sentence.

***Резюме.*** *В данной статье рассматривается роль аппликативной модели в развитии лингвистики при формировании сложных синтактических средств. Синтактическая сложность формы речи может также возникать за счет вводных слов и союзов, междометий. Однако синтактическая активность этих средств не происходитв рамках аппликативной модели. Даже если и происходить, то формируется лищь отдаленная связь. Ведь они не могут образовывать прямую синтагматическую связь с непосредственными участниками предложения.*

1 G‘ulomov A. Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. – Toshkent, 1987. C. 221.